

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 4 **2026**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MAMUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 4



TOHKENT-2026

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-4>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudonazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

IQTISOD

- 1. Odilbekova Xonimjon Jahongir qizi. Rudenko Inna Yurevna.**
 QATTIQ MAISHIY CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH:
 XORIJIY TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON UCHUN ISTIQBOLLAR.....8
- 2. S.M.Raximova. V. M. Baxtiyarova.**
 RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONIDA TIBBIY XIZMATLAR
 KO‘RSATISHNI MOLIYALASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....13
- 3. S. Allayarov.**
 MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA STARTAP LOYIHALARDAN
 FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI.....16
- 4. Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li.**
 EKSPORT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQA
 RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA’SIRI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....20
- 5. Matkarimov Feruz Bekturdiyevich.**
 MINTAQA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARINING GLOBAL BOZORDA
 RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.....27
- 6. Yulduz Yaqubova Raimovna.**
 OZIQ-OVQAT SANOATIDA TEXNIKA TARAQQIYOTI, INNOVATSION
 TRANSFORMATSIYA VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....33
- 7. Masharipova Xosiyat Matrasulovna. Xalbayeva Maftuna.**
 XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTIDA EKOLOGIK OMILLAR VA BARQAROR
 HUDUDIY RIVOJLANISH MASALALARI.....38
- 8. Sattarova Dilfuza Dilshodbekova.**
 O‘ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY
 ASOSLARINING YARATILISHI.....43
- 9. Ismailova Gulruh Faxriddinovna.**
 INSON KAPITALIGA INVESTITSIYALAR VA HUDUDIY IQTISODIY NOMUTANOSIBLIK:
 MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI.....48
- 10. Jumaniyazova Sharifa Rashidovna.**
 TURISTIK MAHSULOTLAR BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINI
 RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....54
- 11. Li Yang.**
 EDIGITAL SILK ROAD AND SUSTAINABLE TOURISM: ANALYZING THE ADAPTATION
 OF CHINESE DIGITAL PLATFORMS IN UZBEKISTAN.....58
- 12. Sharipova Asaloy. Rudenko Inna Yurevna.**
 THE EFFECTIVENESS OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN WATER RESOURCE
 MANAGEMENT.....64

13. Турдиева Якитжан Хайитбаевна.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЁРСТВА (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН).....68

14. Djumaniyazov Farruxbek Abdulla o'g'li.

XORAZM VILOYATIDA IQLIM O'ZGARISHI VA INSTITUTIONAL OMILLARNING MINTAQAVIY BARQAROR EKOLOGIK-IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....72

TARIX

1. Дилафруз Ийманова Абдиманнобевна.

ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КАДРЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ, МОДДИЙ АҲВОЛИ: МУАММОЛАР ВА САБОҚЛАР (1925-1941 ЙИЛЛАР).....79

2. Ahmadjonova Inobat Baxodir qizi.

MOHENJO-DARO VA HARAPPA SIVILIZATSIYALARINING PAYDO BO'LISHI VA TARAQQIYOTI.....88

3. Otamuradova Roviyaon Olimboyevna. Joldasova Ozoda Ergash qizi.

MUSTAQILLIK YILLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH, VATANIMIZNING QADIMIY VA BOY TARIXINI O'RGANISH.....92

4. Saotboyev Rahmatjon Madamin o'g'li.

XORAZM VOHASIDA IBTIDOIY SAHNAVIY UNSURLAR VA MAROSIMIY TOMOSHALAR: IJTIMOIY-MADANIY VA TARIXIY ASOSLAR.....95

5. Саидов Шавкат Жумабаевич.

XX АСРНИНГ ХАЛҚАРО МАЙДОНДА ТАН ОЛИНИШИДА БОБООХУН САЛИМОВНИНГ ЎРНИ.....100

6. Salayev Umrbek Kadambayevich.

QUYI AMUDARYO HUDUDIDA TOSH VA NEOLIT DAVRLARIDA IJTIMOIY-IQTISODIY MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI.....106

7. Safarov Tolib Todjiyevich.

XIVA XONLIGIGA KO'CHIB KELGAN TURKMAN URUG'LARI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR.....111

8. Atadjanova Dilnoza Ganiyevna.

JANUBIY XORAZM HUDUDINING ARXEOLOGIK TADQIQOTLARDA O'RGANILISH TARIXI.....116

FILOLOGIYA

1. Xusainova Shaxnozabonu Ergashevna.

ABU RAYHON BERUNIYNING "OSOR UL-BOQIYA" ASARI VA UNING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDA SHARQ RUHI HAMDA KONTEKSTUAL O'ZIGA XOSLIKNI SAQLASH..121

2. B.Q. Sapayeva.

O'ZBEK TILI GEMERONIMLARINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI.....125

- 3. Sobirova Gulasal Zokir qizi.**
THEORETICAL APPROACH TO LINGUISTIC-COGNITIVE APPROACHES IN MODERN LINGUISTICS.....129
- 4. Mokhinur Murodova Azamat qizi.**
ABBREVIATION AND INTERNET SLANG USAGE AMONG MDIST STUDENTS IN VIDEO GAMES AND ONLINE CHATS.....136
- 5. Yusupova Soxiba Islombek qizi.**
INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALAR SHE’R VA QO‘SHIQLARIDA EMOTSIONAL BO‘YOQDOR SO‘ZLAR.....143
- 6. Sarodbekov Sherzodbek Saforboyevich.**
BADII ASAR USLUBINI QAYTA TIKLASHDA MUTARJIM MAS’ULIYATI (E. HEMINGWAYNING “TO HAVE AND HAVE NOT” ASARI VA UNING TARJIMASAI MISOLIDA).....147

PEDAGOGIKA


- 1. Rajabov Shaxzodbek Baxrom o‘g‘li.**
UMUMIY PEDAGOGIK TAYYORGARLIK JARAYONIDA BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHISINING BADIY MAHORATINI OSHIRISH.....153
- 2. Davletov Mayliboy Yusupovich.**
O‘ZBEK CHOLG‘U IJROCHILIGI TARIXINI O‘RGANISH ORQALI TALABALARNING MUSIQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI.....161
- 3. Abdirimova Shoxsanam Xudayberganovna.**
VERIFIKATSIYA TAMOYILINING PEDAGOGIK JARAYONDAGI MOHIYATI.....166
- 4. Allamuratova Xurliman.**
TA'LIM KONSEPSIYASINING MOHIYATI VA METODIKADAGI O‘RNI.....170
- 5. Sharipov Allabergan Kamilovich.**
JISMONIY TARBIYA VA SPORT YO'NALISHI BITIRUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIK DARAJASINI ISH BERUVCHILAR BAHOSIGA KO'RA TAHLIL QILISH: SO'ROVNOMA ASOSIDA EMPIRIK TADQIQOT.....176
- 6. Jammатов Jasurbek Sharipovich. Komilova Olima Allabergan qizi.**
TAYYORGARLIK DARAJASINI KROSS-FIT MASHG‘ULOTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: DOLZARBLIK VA ISTIQBOLLAR.....183
- 7. Ким Татьяна Сергеевна.**
СТРАТЕГИИ ОБУЧЕНИЯ ИЕРОГЛИФИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКЕ В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ...189

PSIXOLOGIYA

- 1. Jumaniyazova Ilmira Kamiljanovna. Sobirova Xosiyat Rustambekova.**
BOSHLANG‘INCH SINIF O‘QUVCHILARNING XOTIRASINING NEYROPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....195
- 2. Xashimova Sayyora Xolmuradovna.**
IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARDA EMOTSIONAL ZO‘RIQISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....199
- 3. Allayarov Dilshod Raximboy o‘g‘li.**
ERKIN KURASHCHILARDA MUSOBAQA OLDI EMOTSIONAL HOLATLARINING MOTIVATSION JARAYONLARGA TA’SIRI.....203

Ismailova Gulruh Faxriddinovna –
Ma'mun universiteti tadqiqotchisi

INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALAR VA HUDUDIY IQTISODIY
NOMUTANOSIBLIK: MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH
YO'NALISHLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20155935>

Annotatsiya. Mazkur maqolada inson kapitalini moliyalashtirishning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o'sishning muhim omili ekanligini, ayniqsa uzoq muddatda uning ta'siri yuqori bo'lishini ko'rsatdi. Shuningdek, inson kapitalini moliyalashtirish tizimida moliyalashtirish manbalarining yetarli darajada diversifikatsiyalanmaganligi, hududiy tafovutlar va innovatsion mexanizmlarning yetarli rivojlanmaganligi kabi muammolar aniqlangan. Olingan natijalar asosida inson kapitalini moliyalashtirishni takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. inson kapitali, inson kapitalini moliyalashtirish, mintaqaviy iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, innovatsion rivojlanish, raqamli transformatsiya, investitsiyalar samaradorligi, mehnat unumdorligi, hududiy rivojlanish

Аннотация. В данной статье проанализировано влияние финансирования человеческого капитала на региональное экономическое развитие. Результаты исследования показали, что инвестиции, направленные на развитие человеческого капитала, являются важным фактором экономического роста, особенно в долгосрочной перспективе, где их влияние проявляется наиболее значительно. Кроме того, выявлены такие проблемы в системе финансирования человеческого капитала, как недостаточная диверсификация источников финансирования, региональные различия, а также недостаточное развитие инновационных механизмов. На основе полученных результатов разработаны приоритетные направления совершенствования системы финансирования человеческого капитала.

Ключевые слова: человеческий капитал, финансирование человеческого капитала, региональная экономика, экономический рост, инновационное развитие, цифровая трансформация, эффективность инвестиций, производительность труда, региональное развитие.

Abstract. This article analyzes the impact of human capital financing on regional economic development. The research findings indicate that investments in human capital are a significant driver of economic growth, particularly in the long term, where their impact becomes more pronounced. Additionally, several challenges in the human capital financing system have been identified, including insufficient diversification of funding sources, regional disparities, and the underdevelopment of innovative financing mechanisms. Based on the results obtained, priority directions for improving the human capital financing system have been developed.

Keywords: human capital, human capital financing, regional economy, economic growth, innovative development, digital transformation, investment efficiency, labor productivity, regional development.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida inson kapitali milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlovchi eng muhim strategik resurs sifatida namoyon bo'lmoqda. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab shakllangan inson kapitali nazariyasi (T. Schultz, G. Becker va boshqalar) iqtisodiy o'sishning asosiy omillari qatorida ta'lim, sog'liqni saqlash va kasbiy tayyorgarlikka yo'naltirilgan investitsiyalarni ajratib ko'rsatadi. Bugungi kunda esa global iqtisodiyotda yuz berayotgan raqamli transformatsiya, innovatsion rivojlanish va texnologik o'zgarishlar inson kapitalining sifat ko'rsatkichlarini yanada muhimlashtirib, uni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda.

Xalqaro tashkilotlar, xususan Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan inson kapitali indeksiga ko'ra, mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati nafaqat mavjud resurslarga, balki aholi salomatligi, bilim darajasi va mehnat unumdorligi bilan belgilanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlab, mehnat unumdorligini oshiradi hamda innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi. Shu bilan birga, inson kapitalini shakllantirish jarayoni katta hajmdagi moliyaviy resurslarni talab qiladi va bu resurslarni samarali taqsimlash masalasi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

So'nggi yillarda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda inson kapitalini moliyalashtirishda yangi yondashuvlar shakllanmoqda. An'anaviy davlat budjeti mablag'lari bilan bir qatorda davlat-xususiy sheriklik, ijtimoiy ta'sir investitsiyalari, ta'lim kreditlari, grantlar va raqamli platformalar orqali moliyalashtirish kabi innovatsion mexanizmlar keng qo'llanilmoqda. Jahon banki va UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalarning o'rtacha rentabelligi 9–10 foizni tashkil etadi, bu esa inson kapitaliga sarmoya kiritishning iqtisodiy jihatdan yuqori samaradorligini tasdiqlaydi. Biroq mavjud moliyalashtirish tizimlari ko'plab mamlakatlarda sifat va qamrovni bir vaqtda oshirish uchun yetarli darajada samarali emas.

Mintaqaviy iqtisodiyot nuqtai nazaridan inson kapitalini rivojlantirish va uni moliyalashtirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Chunki hududlar o'rtasida ta'lim sifati, sog'liqni saqlash xizmatlari, mehnat resurslarining malaka darajasi va iqtisodiy imkoniyatlar bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjud. Bu esa hududiy iqtisodiy rivojlanishning nomutanosibligini kuchaytirib, ayrim mintaqalarning investitsion jozibadorligini pasaytiradi. Shu sababli inson kapitalini moliyalashtirishni hududiy xususiyatlardan kelib chiqib tashkil etish, mavjud resurslardan samarali foydalanish va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish muhim ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, mamlakatimizda ham inson kapitalini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. So'nggi yillarda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, sog'liqni saqlashni isloh qilish va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamlis islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim qamrovi keskin oshirildi, oliy ta'limga kirish imkoniyatlari kengaytirildi, sog'liqni saqlash tizimida yangi boshqaruv va moliyalashtirish mexanizmlari joriy etilmoqda. Shu bilan birga, aholining ayrim qatlamlari uchun ta'lim kreditlari, grantlar va subsidiya mexanizmlari kengaytirilmoqda.

Biroq amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramay, inson kapitalini moliyalashtirish tizimida bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, hududlar kesimida moliyaviy resurslarning notekis taqsimlanishi, xususiy sektor ishtirokining yetarli darajada rivojlanmaganligi, innovatsion moliyalashtirish vositalarining keng joriy etilmaganligi hamda mavjud mablag'lardan foydalanish samaradorligining pastligi kuzatilmoqda. Bundan tashqari, raqamli transformatsiya sharoitida yangi ko'nikmalarni shakllantirish uchun zarur moliyaviy mexanizmlar hali to'liq shakllanmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mintaqaviy iqtisodiyotda inson kapitalini moliyalashtirishning innovatsion mexanizmlarini takomillashtirish, mavjud moliyalashtirish

tizimining samaradorligini oshirish hamda hududiy rivojlanishga ta'sirini kuchaytirish masalalari dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Inson kapitali va uni moliyalashtirish masalalari iqtisodiyot fanida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinayotgan muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishning nazariy asoslari XX asrning o'rtalarida shakllanib, keyinchalik zamonaviy iqtisodiy sharoitlar ta'sirida yangi mazmun bilan boyitildi.

Inson kapitali nazariyasining asoschilari sifatida Theodore Schultz va Gary Becker e'tirof etiladi. T. Schultz o'zining "Investment in Human Capital" asarida ta'lim va sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan xarajatlarni investitsiya sifatida talqin qilib, inson kapitalining iqtisodiy o'sishdagi rolini asoslab bergan [1]. G. Becker esa "Human Capital" (1964) asarida inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalarni mikroiqtisodiy darajada tahlil qilib, ularning daromadlilikini hisoblash usullarini ishlab chiqqan [2]. Uning fikricha, ta'lim va kasbiy tayyorgarlikka yo'naltirilgan mablag'lar kelgusida yuqori daromad va mehnat unumdorligi orqali o'zini oqlaydi.

Keyingi bosqichda inson kapitalining iqtisodiy o'sishga ta'siri makroiqtisodiy modellar orqali keng o'rganila boshladi. Xususan, Robert Lucas (1988) modelida inson kapitali ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi omil sifatida ko'rsatilgan bo'lsa [3], Paul Romer (1990) modelida bilim va innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning ichki (endogen) manbai sifatida izohlanadi [4].

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda inson kapitalini moliyalashtirish masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida shakllangan. Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalarning o'rtacha rentabelligi 9–10 foizni tashkil etadi, bu esa inson kapitaliga sarmoya kiritishning yuqori samaradorligini ko'rsatadi [5]. Shu bilan birga, inson kapitalini moliyalashtirishda davlat xarajatlari yetakchi o'rin tutishi bilan birga, xususiy sektor va uy xo'jaliklari hissasi ham muhim ahamiyat kasb etishi qayd etiladi [6].

Bir qator tadqiqotchilar inson kapitalini moliyalashtirish tizimining institutsional jihatlariga alohida e'tibor qaratgan. Xususan, davlat-xususiy sheriklik (PPP) asosida ta'lim va sog'liqni saqlashni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mumkinligi Jahon banki tadqiqotlarida asoslab berilgan [6]. Shuningdek, natijaga asoslangan moliyalashtirish (results-based financing), ijtimoiy ta'sir obligatsiyalari (social impact bonds) kabi innovatsion moliyaviy vositalar inson kapitalini rivojlantirishda samarali mexanizm sifatida qaraladi.

So'nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda inson kapitalini moliyalashtirishning raqamli transformatsiya bilan bog'liqligi ham keng o'rganilmoqda. OECD tadqiqotlariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini rivojlantirish uchun uzluksiz ta'lim, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish va qayta tayyorlash tizimlarini moliyalashtirish zarur [7]. Bu esa moliyalashtirish mexanizmlarining ham transformatsiyasini talab etadi.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan inson kapitalini rivojlantirish va moliyalashtirish masalalari bo'yicha chuqur ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ular mazkur tadqiqotning metodologik asosini boyitadi.

Xususan, A.Sherov tadqiqotlarida oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish hamda byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni keng jalb etish zarurligi asoslab berilgan. Muallifning ta'kidlashicha, rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirishda davlat bilan bir qatorda xususiy sektor ishtiroki yuqori bo'lib, bu tizim samaradorligini oshiradi. Shuningdek, u oliy ta'limni moliyalashtirishda natijaga asoslangan yondashuvni joriy etish va moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish zarurligini alohida ta'kidlaydi [8].

X.Zaripov o'z tadqiqotlarida inson kapitalining mintaqaviy rivojlanishdagi rolini tahlil qilib, uning iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini oshirishdagi hal qiluvchi omil ekanligini ko'rsatadi. U inson kapitalining samarali ishlatilishi mintaqa iqtisodiy rivojlanishining asosiy drayveri ekanini ta'kidlab, uni baholash va boshqarish tizimini takomillashtirish zarurligini ilmiy asoslaydi [9].

S.Egamov tadqiqotlarida esa mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda oliy ta'lim tizimining o'rni alohida yoritilgan. Muallif oliy ta'lim tizimiga investitsiyalarni oshirish, ta'lim

sifatini yaxshilash va innovatsion iqtisodiyot talablariga mos kadrlar tayyorlash orqali hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkinligini ta'kidlaydi [10].

G.Ro'zmetova o'z ilmiy ishlarida inson kapitalining mintaqaviy xususiyatlarini chuqur tahlil qilib, uning rivojlanishi nafaqat ta'lim va sog'liqni saqlash bilan, balki ijtimoiy-iqtisodiy omillar, innovatsiyalar va institutsional muhit bilan bog'liqligini asoslab beradi. Shuningdek, u inson kapitaliga investitsiyalar iqtisodiy o'sish sur'atlarini sezilarli darajada oshirishini ta'kidlaydi [11].

Mintaqaviy iqtisodiyot nuqtai nazaridan inson kapitalini moliyalashtirish masalalari nisbatan kamroq o'rganilgan bo'lsa-da, mavjud tadqiqotlar hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirishda moliyalashtirish mexanizmlarining muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Xususan, hududiy rivojlanishda inson kapitaliga investitsiyalarni samarali taqsimlash iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda differensial moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligi ta'kidlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda inson kapitalini moliyalashtirishning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini inson kapitali nazariyasi hamda endogen iqtisodiy o'sish nazariyasi tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida umumilmiy va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Jumladan, analiz va sintez usullari yordamida inson kapitalini moliyalashtirish tizimining tarkibiy elementlari o'rganildi va ularning o'zaro bog'liqligi aniqlashtirildi.

Mantiqiy umumlashtirish usuli orqali xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari tizimlashtirildi hamda tadqiqotning nazariy asoslari shakllantirildi.

Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli qo'llanilib, turli mamlakatlarda inson kapitalini moliyalashtirish tajribasi o'rganildi va ularning o'ziga xos jihatlari tahlil qilindi.

Empirik tahlil doirasida statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usulidan foydalanildi. Bunda inson kapitaliga investitsiyalar, mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik mavjud ilmiy tadqiqotlar va statistik natijalar asosida baholandi.

Tadqiqotda shuningdek tizimli yondashuv qo'llanilib, inson kapitalini moliyalashtirish jarayoni o'zaro bog'liq elementlardan iborat tizim sifatida ko'rib chiqildi.

Induktiv va deduktiv yondashuvlar uyg'un holda qo'llanilib, mavjud empirik natijalardan umumiy xulosalar chiqarildi hamda nazariy asoslar orqali amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari inson kapitalini moliyalashtirishning iqtisodiy samaradorligi va mintaqaviy rivojlanishga ta'siri yuqori darajada ekanligini ko'rsatdi. Empirik hisob-kitoblar va xalqaro tahlillar asosida aniqlanishicha, iqtisodiy o'sishning qariyb 60–65 foizi inson kapitali bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu omil zamonaviy iqtisodiyotda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, inson kapitaliga yetarli darajada investitsiya qilinmagan sharoitda mehnat unumdorligi potensial maksimal darajaning atigi 50–60 foizi darajasida shakllanishi kuzatiladi. Bu esa moliyalashtirish tizimining yetarli darajada samarali emasligini anglatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o'sishga qisqa va uzoq muddatda turlicha ta'sir ko'rsatadi. Qisqa muddatli davrda ta'lim, sog'liqni saqlash va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirilgan investitsiyalar yalpi hududiy mahsulot o'sishiga nisbatan pastroq darajada (taxminan 0,5–1,5 foiz oralig'ida) ta'sir ko'rsatsa, uzoq muddatda ushbu ko'rsatkichlar sezilarli darajada oshib, 6–9 foizgacha yetishi aniqlangan [12]. Mazkur natijalar inson kapitaliga investitsiyalarni strategik va uzoq muddatli rivojlanish omili sifatida baholash zarurligini tasdiqlaydi.

Mintaqaviy kesimda olib borilgan tahlillar inson kapitalining rivojlanish darajasi hududlar o'rtasida sezilarli tafovutlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Ayrim hududlarda ta'lim sifati, sog'liqni saqlash infratuzilmasi va kadrlar malakasi yuqori bo'lganligi sababli iqtisodiy faollik va daromadlar darajasi ham yuqori bo'lsa, boshqa hududlarda bu ko'rsatkichlar past darajada qolmoqda. Bu esa inson kapitalini moliyalashtirishda hududiy yondashuvni qo'llash zarurligini asoslaydi.

Tahlillar davomida inson kapitali, innovatsion salohiyat va raqamli transformatsiya o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Ekonometrik baholash natijalariga ko'ra, inson kapitaliga

investitsiyalar uning rivojlanish darajasini oshiradi, bu esa o'z navbatida innovatsion faoliyatni va raqamli transformatsiya jarayonlarini tezlashtiradi. Natijada mintaqaviy iqtisodiy o'sish barqaror sur'atlarda ta'minlanadi. Ushbu bog'liqlik tizimli xarakterga ega bo'lib, inson kapitalini moliyalashtirishni iqtisodiy rivojlanish strategiyasining markaziy elementi sifatida ko'rish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, xalqaro taqqoslashlar inson kapitaliga investitsiyalar samaradorligi mamlakatlar o'rtasida sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatdi. Ayrim rivojlangan davlatlarda ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar o'zini 13–17 barobar oqlayotgan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 3–5 barobar atrofida shakllanmoqda [12]. Bu esa moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligi, institutsional muhit va investitsiyalarning yo'naltirilish sifati bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Inson kapitalini moliyalashtirish tizimi tahlili uning asosiy muammolarini ham aniqlash imkonini berdi. Jumladan, moliyalashtirish manbalarining yetarli darajada diversifikatsiyalanmaganligi, xususiy sektor ishtirokining pastligi, innovatsion moliyalashtirish vositalarining keng joriy etilmaganligi hamda hududlar o'rtasidagi tafovutlar ushbu tizim samaradorligini cheklab kelmoqda. Shu bilan birga, mavjud moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi ham yetarli darajada yuqori emasligi kuzatilmoqda.

Olingan natijalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, inson kapitalini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarur:

- moliyalashtirish manbalarini kengaytirish va diversifikatsiya qilish;
- xususiy sektor va xalqaro moliyaviy institutlar ishtirokini kuchaytirish;
- hududiy xususiyatlarni hisobga olgan differensial moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish;

- innovatsion va raqamli moliyalashtirish vositalaridan foydalanishni kengaytirish.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari inson kapitalini moliyalashtirishni takomillashtirish orqali mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

XULOSA

Mazkur tadqiqotda inson kapitalini moliyalashtirishning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri kompleks tahlil qilinib, uning iqtisodiy o'sishdagi hal qiluvchi o'rni ilmiy jihatdan asoslab berildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri bo'lib, ularning ta'siri ayniqsa uzoq muddatda yuqori darajada namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, inson kapitaliga yetarli darajada investitsiya qilinmagan sharoitda mehnat unumdorligi o'zining maksimal potensialiga nisbatan sezilarli darajada past shakllanadi. Aksincha, ta'lim, sog'liqni saqlash va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o'sishni barqaror va uzoq muddatli asosda ta'minlaydi. Empirik natijalar inson kapitaliga investitsiyalarning qisqa muddatda cheklangan, ammo uzoq muddatda yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari inson kapitalining rivojlanish darajasi hududlar kesimida notekis taqsimlanganligini ko'rsatdi. Bu esa mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda tafovutlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois inson kapitalini moliyalashtirishda hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda differensial yondashuvni qo'llash zarur.

Tahlillar inson kapitali, innovatsion salohiyat va raqamli transformatsiya o'rtasida kuchli o'zaro bog'liqlik mavjudligini ham tasdiqladi. Inson kapitaliga investitsiyalar nafaqat uning sifat ko'rsatkichlarini oshiradi, balki innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi va raqamli iqtisodiyotga o'tishni tezlashtiradi. Natijada mintaqaviy iqtisodiy o'sishning yangi sifat bosqichiga erishish imkoniyati yaratiladi.

Shu bilan birga, inson kapitalini moliyalashtirish tizimida mavjud muammolar ham aniqlangan bo'lib, ular qatoriga moliyalashtirish manbalarining yetarli darajada diversifikatsiyalanmaganligi, xususiy sektor ishtirokining pastligi, innovatsion moliyalashtirish

mexanizmlarining yetarli darajada joriy etilmaganligi hamda hududlar o'rtasidagi tafovutlar kiradi. Ushbu omillar tizim samaradorligini cheklab kelmoqda.

Yuqoridagi natijalardan kelib chiqib, inson kapitalini moliyalashtirish tizimini takomillashtirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlariga e'tibor qaratish lozim:

- moliyalashtirish manbalarini kengaytirish va ularni diversifikatsiya qilish;
- xususiy sektor va xalqaro moliyaviy institutlar ishtirokini kengaytirish;
- hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda moliyalashtirish mexanizmlarini differensiallashtirish;
- innovatsion va raqamli moliyalashtirish vositalarini joriy etish;
- inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalarning samaradorligini oshirish.

Umuman olganda, inson kapitalini moliyalashtirishni takomillashtirish mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish hamda uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Schultz T.W. Investment in Human Capital. American Economic Review, 1961.
2. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. University of Chicago Press, 1964.
3. Lucas R.E. On the Mechanics of Economic Development. Journal of Monetary Economics, 1988.
4. Romer P.M. Endogenous Technological Change. Journal of Political Economy, 1990.
5. Psacharopoulos G., Patrinos H.A. Returns to Investment in Education: A Global Update. World Bank, 2018.
6. World Bank. Human Capital Project and Financing Human Capital. World Bank Reports, 2020.
7. OECD. Developing Skills for Digital Government. OECD Publishing, 2024.
8. Sherov A.B. "Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari" mavzusidagi doktorlik (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2020
9. Zaripov X. "Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda inson kapitalidan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari (Xorazm viloyati misolida)" mavzusidagi doktorlik (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Urganch, 2024
10. Egamov S. "Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda oliy ta'lim tizimini samarali tashkil etish (Xorazm viloyati misolida)" mavzusidagi doktorlik (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Urganch, 2025
11. Ruzmetova G. "Inson kapitalini rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari (Xorazm viloyati misolida)" mavzusidagi doktorlik (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Urganch, 2025
12. Abdikarimov I. "Inson kapitaliga investitsiyalar kiritish orqali mintaqada innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish yo'llari (Xorazm viloyati misolida)" mavzusidagi doktorlik (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Urganch, 2025
13. Кучкаров, Ш., & Шеров, А. Б. (2022). Семейное предпринимательство и его эффективность. Баркарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали, 2(1), 154-157.
14. Sherov, A. B., & Ruzmetova, G. N. A. (2022). O 'zbekistonda oliy ta'lim tizimi borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va uni moliyalashtirishning dolzarb masalalari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(2), 264-270.
15. Sherov, A. B. (2022). Current issues of financing higher education institutions in the condition of an innovative economy. Gospodarka i Innovatsiya, 21, 127-130.

«MAMUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].